ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK 372.21.002(045) **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2220

IJODIY-MADANIY MASALALAR BO‘YICHA TARG‘IBOTCHI FAOLIYATINING FUNKSIONAL PEDAGOGIK TAHLILI

Sh.Jumanov
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta`lim maktablaridagi ma`naviy-ma`rifiy ishlarning mazmuniga kiruvchi targ‘ibotchi va uning faoliyatini tashkil qilish yo‘nalishlari, shakllari, ijodiy-madaniy ta’lim-tarbiya, adabiyot hamda undan foydalanishning mazmun-mohiyati qisqacha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy-madaniy ta’lim va tarbiya, art pedagogika, mahorat saboqlari, motivatsiya.

Функционально-педагогический анализ деятельности пропагандиста по вопросам творчества и культуры

Аннотация. В данной статье идет речь о пропагандисте, входящий в содержание духовно-просветительской работы в общеобразовательных школах, и о направлениях и формах организации его деятельности, культурного-творческого воспитания, о литературе и ее содержание.

Ключевые слова: культурно-творческое образование и воспитание, художественная педагогика, уроки мастерства, мотивация.

Propagandist activities on creative and cultural issues functional pedagogical analysis

Abstract. In this article, the propagandist and the directions and forms of organizing his activities, creative and cultural education, literature and the content of his use, which are included in the content of spiritual and educational work in general secondary schools, are discussed. - its essence is briefly explained.

Key words: creative and cultural education and upbringing, art pedagogy, skill lessons, motivation

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-iyun kuni yoshlar bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqidagi: “Davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri, bu ma’naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy uyg‘onish g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishdir”[1], – degan fikrlari yoshlarni ijodiy, madaniy faoliyatga jalb etish yo‘nalishlarini belgilashda dasturiy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyatning eng muhim jihatlaridan biri madaniy – ijodiy faoliyatni shakllantirish tarbiyasidir. Madaniy – ijodiy kompetensiyalar shaxs ijtimoiy faolligining asosini tashkil etadi, uning jamiyat va dunyo bilan munosabatlarining barcha tomonlari va shakllariga, uning ijodiy rivojlanishi, intellektual salohiyati, hissiy holati va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ijodiy-madaniy targ‘ibot, tarbiya ma’lum davrning milliy madaniy xususiyatlarini yaxlit qamrab olishga, uni tushunishga yordam beradi. Shu bois ijodiy – madaniy faoliyat odamlarni dunyo madaniyati va san’ati bilan tanishtirish - yaxlit shaxs va ijodiy rivojlangan shaxsni shakllantirish uchun zarur shartdir, deyish mumkin.

Ijodiy-madaniy targ‘ibot faoliyati o‘zining quyidagi talqinlariga ega:

- shaxsning ijodiy madaniyatining nazariy va qadriyat asoslarini yaratish;

-shaxsning badiiy madaniyatini ko‘nikmalar, bilimlar, qiymat yo‘nalishlari, didlari birligida shakllantiradigan o‘quv-nazariy va badiiy-amaliy ifodasida badiiy ta’lim;

- shaxsiyatni takomillashtirishga qaratilgan ijodiy o‘zini o‘zi tarbiyalash;

- ijodiy ehtiyojlar va qobiliyatlarni tarbiyalash.

Ijodiy-madaniy targ‘ibot faoliyati turli darajadagi tashkiliy darajalarga ega, shaxsni badiiy o‘zini o‘zi idrok etishning turli shakllari va usullarini aks ettiruvchi ancha murakkab tuzilishga ega. Hozirgi kunda badiiy ijod va san’atga murojaat qilish ayniqsa dolzarbdir, chunki buning uchun mamlakatda

amalda bo‘lgan “Besh muhim tashabbus” harakati yoshlarning ijodiy tarbiyasi uchun boy imkoniyatlar yaratib berdi.

“Besh muhim tashabbus” harakatining pirovard maqsadi – ijodkor shaxslarni yetishtirish. Badiiy-ijodkorlik o‘quvchilarning hayoti va faoliyatini tashkil etish turlari va shakllarida, o‘zaro munosabatlarda, yaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarda namoyon bo‘ladi va ko‘plab omillar ta’siri ostida shakllanadi: ob’ektiv va subektiv, tabiiy va ijtimoiy, ichki va tashqi, o‘z-o‘zidan yoki ma’lum maqsadlarga muvofiq harakat qiladigan odamlarning ongi, mustaqilligi va irodasiga bog‘liqdir. Chunki insonning ijodiy madaniyati, shaxsning asosiy mulki bo‘lib, unga to‘liq aloqa qilish va uni yaratishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Ijodiy-madaniyatning umumiy madaniyat va shaxsning ma’naviy, jismoniy ko‘rinishining boshqa jihatlari bilan aloqasi alohida xususiyatga ega. Shaxs madaniyatining mohiyati badiiy va ijodiy idrok, tajriba va ijodkorlikka tayyorlik va qobiliyatdir.

Bu borada mamlakatimiz maktablarida 2021-yildan boshlab, ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi(IMMBT) shtat birligi joriy etilganligi maktablarda ijodiy-madaniy muhitni yuqori pog‘onaga ko‘tarishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu lavozimga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tavsiya etilgan taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist va ijodkorlar, oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy gumanitar kafedralari professor va o‘qituvchilari jalb qilinishi belgilangan[2].

IMMBTlar olib borgan ishlarining natijalari Respublika ishchi guruhi tomonidan sarhisob qilib boriladi.

IMMBTning asosiy vazifalari:

o‘quvchi-yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash, hal etish va ko‘maklashish;

o‘quvchilar ongiga Ona-Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar;

yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

iste’dodli ijodkor o‘quvchilarni atoqli adiblar nomidagi ijod maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali kelajakda ularning ijod maktablarida ta’lim olishlariga motivatsiya berish;

taniqli yozuvchi va shoirlarni jalb qilish orqali umumta’lim maktablarida adabiy-badiiy kechalar tashkil qilish;

badiiy adabiyot, ijodiy jarayonlarga qiziqtirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj, tarbiyasi og‘ir bolalarning ma’naviy-ruhiy holatini yaxshilashga yordam berish tarzida belgilab berilgan.

Besh muhim tashabbusning mazmunida madaniyat va san’atga alohida e’tibor qaratilgan. Bu bejiz emas, chunki badiiy to‘garaklar mashg‘ulotlarining yoshlar tarbiyasida shaxs qalbi, axloqiy tuyg‘ularini tarbiyalashda boy psixologik imkoniyatlarga ega. Zero “San’at inson ruhiyatining eng xilma-xil tomonlarini - nafaqat tasavvur va hissiyotni, o‘z-o‘zidan ravshan ko‘rinadigan holatlarni, balki fikr va irodani ham qamrab oladi. Demak, bu ongni va o‘zlikni anglashni rivojlantirishda, axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalashda va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun badiiy ta’lim shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlanishni rag‘batlantirish vositalaridan biridir”[3]. Buni R.M.Chumicheva o‘tkazgan tadqiqotlar ham tasdiqlaydi[4].

Ijodiy-madaniy ishlar bo‘yicha targ‘ibotchi faoliyatini quyidagi holatlarda shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Yakka tartibdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga olimpiadalar, iqtidorli o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan tanlovlar, konkurslar, ko‘rgazmalar kiradi. Garchi bu shakldagi tadbirlarga ko‘pchilik ishtirok etsada, unda har bir ishtirokchi yakka holda ishtirok etishi, maktabi, tumani, viloyatini tadbirning ma’lum turi bo‘yicha yakka tartibda himoya qilgani uchun uni yakka shakldagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyat deb ataymiz. Fan olimpiadalari - bu bilimlarga qiziqishini rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy qiymati shundaki, garchi ma’lum fan bo‘yicha o‘tkazilsada, unda tuziladigan yakka holatdagi topshiriqlar, savollar o‘quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, bilim olishga intilishini kuchaytiradi.

Yakka tartibdagi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning tanlov va ko‘rgazma shaklidagi turi ham o‘quvchi-yoshlarda ijodkorlikni, maqsadga intiluvchanligini rivojlantiradi. Masalan: o‘quvchi "Yosh adabiyotshunos", "Yosh kitobxon", "Yosh xonanda", "Raqs gulshani", "Mohir qo‘llar", "Texnik ijodkorlik", "She'riyat maskani" kabi tanlovlar va ko‘rgazmalarda ishtirok etib, har biri o‘z ijodkorligi, qobiliyati, iste'dodini namoyish etadi. Bu tanlovlar maktablardan boshlanib tuman, viloyat, respublika miqyosida o‘tkazganligi tufayli o‘quvchilarda mas'uliyat, faxr, sha'n uchun kurash his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Bu jarayonlarda soha mutaxasislari va maktablardagi ijodiy-madaniy ishlar bo‘yicha mutassadi rahbarning o‘rni beqiyosdir.

Hozirgi kunda maktablarda eng ko‘p tarqalgan ma`naviy-ma`rifiy faoliyat shakli bu to‘garak ishidir. Bu to‘garaklar soha vakillari hamda bevosita maktablardagi ijodiy-madaniy ishlar bo‘yicha mutassadining rahbarligida shakllantirilishi belgilab qo‘yilgan. To‘garaklar quyidagi turlarda olib boriladi:

a) fan to‘garaklari;
b) badiiy havaskorlik to‘garaklari;
v) sport;
d) mohir qo‘llar to‘garaklari;
e) turli musobaqalar: viktorinalar, quvnoqlar va zukkolar va h.k.

Ushbu to‘garaklarning maqsadi- o‘quvchilarning predmet (fan) bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, o‘quv xonalari uchun jihozlar va ko‘rsatmali qurollar tayyorlash hamda shu asosda o‘quvchilarning texnikaviy ijodini rivojlantirishdan iborat. To‘garak a`zolari fan va texnika yutuqlariga bag‘ishlangan yangiliklar bilan tanishadilar, qiziqarli tajribalar o‘tkazadilar, masalalar echadilar, fan bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda foydalanish uchun ko‘rgazmali qurollar va modellar ishlab chiqadilar hamda tayyorlaydilar. To‘garak a`zolari fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorlanish va uni o‘tkazish vaqtida o‘zlari ham bevosita qatnashishlari ham mumkin. To‘garak ishining mazmuni ma`lum darajada mahalliy sharoitlar bilan belgilanadi. Mashg‘ulotlar mavzusi to‘garak rahbari tomonidan talabalarning qiziqish va istaklarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Yuqoridagi ilmiy asoslardan kelib chiqib, IMMBT o‘z faoliyatini bir necha yo‘nalishlarda tashkil etadi. Jumladan, targ‘ibotchi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o‘rganadi va sinf o‘quvchilaridan turli yo‘nalishlardagi ya`ni, she`rxonlik, kitobxonlik, milliy o‘yinlar, san`atning turli janrlari, jumladan, aktyorlik, musiqa san`ati, ashula va raqs san`ati, sahna madaniyati kabi ijodiy jamoalarni tashkil qilishi mumkin. Shu bilan birga, targ‘ibotchi sinfdan tashqarida olib borilayotgan ishlarga rahbarlik qiladi. Bunda maktabda ijodkorlar, san`atkorlar, she`rxonlik, kitobxonlik kabi to‘garaklarni tashkil qiladi. Shuningdek, maktabda o‘tkaziladigan ijodiy-madaniy tadbirlar o‘tkazilishini nazorat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarni ijod maktablariga, teatrlarga, tarixiy joylarga, muzeylarga borishini tashkil qiladi.

Targ‘ibotchi faoliyatining yana bir yo‘nalishi bu - uning shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida o‘tkaziladigan ijodiy-madaniy tanlovlarga o‘quvchilarni tayyorlashi bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun IMMBT yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning har biriga alohida-alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

IMMBT tadbirlarni tashkil qilish jarayonida avvalo tadbirning maqsad va vazifalarini belgilab olishi kerak. Tadbirlarni tashkil qilish jarayonida axborot va kompyuter texnologiyalaridan yuqori saviyada foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish barobarida o‘zi shu sohani ham mukammmal egallashi lozim. Targ‘ibotchi tadbirlarda axborotning turli xil ko‘rinishlari: matn, rangli grafika, mavzuga xos ovozli va har xil musiqalardan, animatsion jarayonlar va shuningdek, qisqa metrajli filmlardan keng foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, maxsus dasturiy ta`minot, rasmlar, audio, video ma`lumotlardan foydalanish orqali tadbirning yanada samarali bo‘lishiga erishiladi.

Bugungi kunda ta`lim tizimida raqamli iqtisodiyotga o‘tish keng joriy etib borilmoqda. Dunyoda kechayotgan pandemiya sharoitida onlayn tarzda tashkil etilgan darslar yoshlarni raqamli iqtisodiyotni mukammal egallashiga keng yo‘l ochgan bo‘lsa, bu holatlar ma`naviy-ma`rifiy jarayonlarda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Maktablararo o‘tkaziladigan ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar, ijodiy-madaniy ishlar va shu kabi tanlovlarni tashkil qilib borilishi ham uzoq masofalarni

yaqinlashtiradi. Targ‘ibotchi onlayn tarzda o‘tkaziladigan tadbirlardan ham samarali foydalansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

IMMBTning yana bir muhim faoliyat turi bu – uning ijodiy to‘garaklar tashkil etib, reja asosida mahorat saboqlarini olib borishidir. Chunki mahorat darslariga malakali mutaxassislar jalb etilsa, to‘garak a’zolarining soni va ularning ijodiy faoliyatga qiziqishi yanada oshadi. Buning uchun IMMBT o‘zi faoliyat ko‘rsatadigan maktabdagi ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlaydi. Bu borada ularning monitoringini olib boradi. Monitoring natijalaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilar ichidan eng iste`dodlilarini saralab oladi, o‘quvchilarning ijodiy ishlari bilan muntazam tanishib borishi orqali ularga ijodiy jihatdan maslahat va tavsiyalar berib boradi. Bunda artpedagogika metodlaridan unumli foydalanish zarur. Bu haqda Sh.Mustafaev o‘z tadqiqotida “Badiiy faoliyat mahsuliga art pedagogikada alohida o‘rin beriladi. Masalan, bolalar ijodiy ishlariga avvalo, bola shaxsining rivoji, uning dunyoga bo‘lgan munosabatining ramziy ifodasi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan bolalar ijodiy ishlarida bolaning aqliy rivojlanish darajasi va shaxsiy fazilatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarni alohida ajratib ko‘rsatish juda muhimdir”[5;36-b].

Masalan, yorqin iste’dodga ega bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida “Ajdodlar merosi – ma’rifat ziyosi”, “Ajdodlar jasorati – avlodlar merosi”, “Ajdodlar merosi - hayotimiz mayog‘i” kabi g‘oyalar asosida o‘quvchilar o‘rtasida turli ijodiy tanlovlar tashkil etishning ssenariylari ishlab chiqiladi va tadbirlar o‘tkazilib, yuqori natijaga erishgan o‘quvchilarning ijodiy ishlarini adabiy nashrlarga, almanaxlarga tavsiya etib boradi. O‘quvchilarni Ijod maktablariga sayohatga olib chiqadi. Ijod maktablariga qilingan sayohatlar o‘quvchilarda keng motivatsiya hosil qilishga yo‘l ochadi.

O‘quvchilar o‘rtasida “Navoiy asarlarida yoshlar tarbiyasi”, “Ajdodlar merosi – ma’rifat ziyosi”, “Xalq og‘zaki ijodi – yorqin kelajak poydevori” “Xalq og‘zaki ijodi va uning ta’lim-tarbiyadagi o‘rni” “Maqol va matallar – xalq dahosining mas’uli” kabi mavzularda turli adabiy, ijodiy tanlovlar, “Adabiyot yashasa – millat yashaydi”, “Yoshlar ijodi – adabiyot kelajagi”, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, “Jadid ziyolilarining ma’rifiy harakatlari – ibrat maktabi” mavzularida festivallar, #Navoiy_nazmi_shaydosiman, #Adabiyot_mening_taqdirimda, #Adabiyot_ijod_gulshani kabi mavzularda chellenjlar va boshqa tadbirlar tashkil etilishi o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga qiziqishini oshiradi. O‘tkazilgan turli adabiy, ijodiy tanlovlar va festivallarda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni rag‘batlantirishni tashkil etish ham targ‘ibotchining vazifalaridan biridir.

IMMBT tadbirni o‘tkazishning ssenariylarini ishlab chiqadi. Bunda, tadbirga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida taqdim etilgan materialdan, ilmiy adabiyotlardan, internet tarmog‘idan foydalanish, shu sohaning mutaxassislari bilan suhbatlar orqali ma’lumotlar to‘plashi kerak. Tadbir texnologiyalarini ishlab chiqishda eng samarali yo‘llardan biri multimediali yondashuvga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, targ‘ibotchi mavzuga oid bo‘lgan slaydlar va ko‘rgazmali qurollarni hamda axborot materiallari bilan bog‘liq bo‘lgan animatsion jarayonlarni tadbir boshlanishidan oldin tahlil qilishi va undan kutiladigan natijalarni sarhisob qilishi lozim.

IMMBTning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni rivojlantirishdir. Ushbu maqsadda kitob mutolaasini targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni olib boradi. Buning uchun mamlakatimizda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning 4-tashabbusi Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etilmoqda. Zero kitobxonlik har bir millatning ma’naviy-ma`rifiy qiyofasi, uning ajdodlardan qolgan boy ma`naviy merosga hurmat va ehtiromini belgilab beruvchi vositadir. Yosh avlodni halol va pok hamda chinakam vatanparvar etib tarbiyalashning, ularni ezgu g‘oyalar asosida kamol toptirishning, boqimandalik kayfiyatini mahv etib, jamiyatda mehnatsevarlik muhitini yaratishning, mana shu vatanda yashayotgan har bir insonning ko‘nglida shu yurtning ertangi istiqboli uchun daxldorlik hislarini uyg‘otishning eng muhim omili bu kitobxonlikdir.

IMMBT maktabda har yili “Eng yaxshi kitobxon” tanlovini tashkil etadi. Ushbu tanlov ishtirokchilariga o‘qish tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxatini taqdim etadi. Shu bilan birgalikda u taniqli yozuvchi va shoirlarni jalb qilgan holda umumta’lim maktablarida adabiy-badiiy kechalarni tashkil etadi. Maktabda kitob yarmarkalarini tashkil qiladi.

Bunda IMMBT adabiy-badiiy kechalarda taniqli shoir va yozuvchilar o‘zlarining she’rlari va asarlaridan parchalar aytib berishlarini tashkil qiladi. Bu yosh ijodkorlarga motivatsiya beradi. Targ‘ibotchi o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara durdonalarini targ‘ib qiladi. Bu bilan o‘quvchi-yoshlarimizni umuminsoniy va milliy badiiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga muhim hissa qo‘shadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarning ijodiy madaniyatini shakllantirish jarayonini samarali amalga oshirishda IMMBTning shaxsiy fazilatlari katta ahamiyatga ega. Bunda ijodkorlik tarbiyasiga e’tiborlilik, intellektual va hissiy stresslarga bardoshlilik, kuzatuvchanlik, empatiya, pedagogik etika, xushmuomalalik, ochiqlik va tashkilotchilik fazilatlarining mavjudligi, ya’ni tashabbuskorlik, ishontirish qobiliyati uyg‘unligi “Besh muhim tashabbus” doirasidagi kompleks ijodiy madaniy vazifalarning samarali ijro etilishida muhim rol o‘ynaydi.

Ijodiy-madaniy faoliyatning artpedagogik xususiyatlari ulardan o‘quvchilarning ijodiy madaniyatini shakllantirish jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini beradi. Bunda ijodiy-madaniy tadbirlar o‘quvchilarning ijodiy madaniy faolligini shakllantirishga ta’sir etuvchi kuchli tashkiliy vositalar bo‘lib, ular yoshlarning shaxsiy ijodiy salohiyatini, badiiy hissiyot va ma’naviy axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag‘batlantiradi.

Ijodiy-madaniy to‘garaklar sharoitida o‘quvchi-yoshlarning ijodiy madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyati pedagogik jarayonning vaqt ko‘rsatkichini cheklash va ta’lim faoliyati jarayonida ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish, bu shaxsning individual xususiyatlari bilan belgilanadi va uni badiiy ijodning turlari bilan tanishtirishdan iborat. Madaniy qadriyatlarni yaratish, ijodiy dunyoqarashni kengaytirish, ijodkorlikni rivojlantirish, ma’naviy va axloqiy fazilatlar va tuyg‘ular aynan ushbu jarayonda shakllantiriladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston NMU, 2017. 503–B.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta`lim vazirligi, Respublika Ma`naviyat va ma`rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2020 yil 28 dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta`lim muassasalarida ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari faoliyatini takomillashtirish hamda Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimini joriy etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori.
3. Теплов Б. М. Психологические вопросы художественного воспитания // Известия АПН РСФСР. 1947. № 11. С. 7-13.
4. Чумичева Р. М. Взаимодействие искусств в формировании личности старшего дошкольника. Ростов н/Д: РГПУ, 2005. 272 с.
5. Mustafaev Sh. Artpedagogika asoslari. 2022. Samarqand, SamDU nashri, 80-b.
6. Mahmudov R. Ijodiy targ‘ibotchi mas`uliyati va targ‘ibot majburiyati. Uslubiy qo‘llanma. –T., 2022. - 46 b.
7. Матюшкина А.М. Развитие творческой активности школьников. — М., 1991. – 160 с.
8. Лабковская Г.С. Эстетическая культура и эстетическое воспитание: Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 2013. – 304 с.
9. Кутьев В.О. Внеурочная деятельность школьников: Пособие для класс. руководителей. – М.: Просвещение, 1983. - 223 с.
10. Якушева С.Д. Искусство и формирование духовной культуры учащейся молодежи. Духовность и государственность. Сборник научных трудов. Выпуск 2. - Оренбург: Оренбургский филиал УрАГС, 2001. –164 с.